

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAC NYUTON
(1643-1727)



2022

APREL

№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz
www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
7-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-7**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-7**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 58 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва ақтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ИУЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

1. G.G'. Ro'ziqulova, E.U.G'aniyev MUHANDISLIK YO'NALISHLARIDA INGLIZ TILI O'QTISHNING SAMARALI USULLARI.....	7
2. Шукуров Уктам Баходирович БАДИИЙ МАТНДА ТАГМАЪНО ФАОЛЛАШУВИНИНГ КОГНИТИВ-ДИСКУРСИВ ШАРТЛАРИ.....	9
3. Кодиров Аббос Ахрорович КЛАССИФИКАЦИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ ПО В. Н. КОМИССАРОВУ.....	11
4. Шарипова Умида Шавкат кизи КОНЦЕПТ «СЧАСТЬЕ» В ЛИРИКЕ С. ЕСЕНИНА.....	13
5. Jo'rayeva Nigora Bahtiyor qizi “MAJOLIS UN-NAFOIS” ASARIDAGI AYRIM SHAXS NOMLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	15
6. Aripova Gulnoza MILLIY CHOLG'ULARGA OID TERMINLARNING O'RGANILISH TARIXI.....	17
7. Jaloliddinova Madina Sirojiddin qizi KOREYS TILIDA RAVISHNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	19
8. Saydullayeva Nargizaxon Ganijonovna O'QUVCHILARNI XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORLASHDA MATN BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI.....	22
9. Ибадуллаева Гавхар Саиджановна СЛОВАРНАЯ РАБОТА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ.....	25
10. Yuldasheva Dilfuza Nusratullaevna BOSHLANG'ICH SINFDA SIFAT SAMARADORLIKNI OSHIRISH VA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYADAN FOYDALANIB, RUS TILI DARSINI O'TISH.....	27
11. Турсуной Эргашева ФОРМИРОВАНИЕ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В СФЕРЕ НАЛОГОВ И НАЛОГООБЛОЖЕНИЙ.....	29
12. Alijonova Gulxayo Adiljon qizi MANMUD KOSHG'ARIY “DEVONU LUG'ATIT-TURK” ASARIDA KELITIRILGAN GEOGRAFIK TERMINLAR.....	34
13. Камалова Дильноза Курбанбаевна ПРОБЛЕМА ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ.....	36
14. Уралова Дильфуза Сайдалиевна, Кучкарова Гульхаёт Илхомовна ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ.....	38
15. Рахматова Дилфуза МЕТОДИЧЕСКАЯ РЕКОМЕНДАЦИЯ К РАЗРАБОТКЕ УРОКА ЛИТЕРАТУРНОГО ЧТЕНИЯ В 5 - 11X КЛАССАХ (С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ).....	40
16. Burxonova Minuraxon Asqaraliyevna THE ADVANTAGE OF USING TECHNOLOGIES DURING THE LESSON.....	42
17. Chulliev Nuriddin Abdirashid ugli SEMANTIC PECULIARITIES OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS.....	43
18. Shodieva Gulrux Nazir qizi, Soliyeva Zohida Zokir qizi USE OF MODERN APPLICATIONS IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING.....	46
19. Yoqubjonova Mexrinov Yaxyojon qizi TIL ISHORA TIZIMI SIFATIDA.....	49
20. Тошпулатова Диляра Камол кизи ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СУБКУЛЬТУРЫ ГЕЙМЕРОВ.....	52
Юнусматова Мадина ГЛАГОЛ КАК ЧАСТЬ РЕЧИ.....	54
21. Хожиев Талъат Тошпулатович ИЖТИМОЙ ИНФРАТУЗИЛМА ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ.....	58



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

MUHANDISLIK YO'NALISHLARIDA INGLIZ TILI O'QTISHNING SAMARALI USULLARI

Ilmiy rahbar: G.G'. Ro'ziqulova
TDTU OF “O'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi
E.U.G'aniyev Islom Karimov nomidagi
TDTU OF 5b-19 KEM guruh talabasi
gulirukhsorruzikulova@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizda til o'rganishga qaratilayotgan kata e'tibor natijasida hozirda deyarli har bir ta'lim muassasalarida horijiy tillarni o'rganish va o'rgatish alohida e'tibor berilmoqda. Nofilologik yo'nalish talabalariga muhandislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishda barchasi uchun umumiy bo'lgan mavzularni tanlash muhim.

Kalit so'zlar: ESP, muhandis, muhandislik yo'nalishlari, mexanik

Nofilologik yo'nalishlarda ingliz tilini o'qitishning bir qancha murakkab jihatlari mavjud. Materiallar va mavzularni tanlashda ularning ehtiyojlarini inobatga olish muhim. Tibbiyot yo'nalishlari, san'at ishlab chiqarish va boshqa sohalarida Ingliz tili aniq maqsadlar uchun ESP (English for Specific Purpose) ni o'rganish obyektlari aniq, aynan qaysi mavzular, mavzuga oild bo'lgan materiallar mavjud. Ammo ingliz tilini texnika yo'nalishlarida, ayniqsa muhandislarga o'qitish bir qancha murakkabliklarni tug'diradi.

Muhandislarga qanday qilib samarali o'qitish lozimligini, ularning ehtiyojlarini bilish qiyin, sababi “muhandis” so'zi ikkita aniq sohani o'z ichiga oladi. Biri “texnik” yoki “mexanik”, ikkinchisi “dizayner” ga yaqin. Va o'z navbatida bu ikkala sohaning ehtiyojlari ikki xil bo'lishi mumkin. Yana bir murakkab jihati shundaki, muhandislik yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar kelajakda muhandislikning aynan qaysi sohasi bilan shug'ullanish bo'yicha aniq tasavvur mavjud bo'lmasigi mumkin.

Alex Casening fikricha, barcha muhandislik soha talabarlari uchun umumiy bo'lgan mavzular quyidagilar:

- Abbreviations
- Adjectives, e.g. positive ones like “reliable” and negative ones like “rusty”
- Consequences/ Cause and effect
- Countable and uncountable nouns
- Dimensions, plus other units of measurement like pressures and temperatures and other numbers
- Directions, e.g. “vertical” and “anticlockwise”
- Equipment and tools
- Language to describe health and safety requirements, e.g. modal verbs
- Materials
- Opposites, e.g. “loose”/ “tight” and “plug in”/ “unplug”
- Other parts of speech, e.g. “loose”/ “loosen” and “wide”/ “width”
- Parts of things, e.g. leg of a chair/ Components and how they are put together
- Positions, e.g. “in the top left corner”
- Presentations, e.g. of a design or to explain an engineering failure
- Processes, e.g. “First of all” and “After that”
- Reports



- Shapes
- Talking about projects, e.g. planning and progress checks
- Things that engineers do, e.g. “check” and “measure”
- Things that machines and devices do and have done to them, e.g. “pivot” and “break down”
- Troubleshooting conversations, e.g. helpdesk phone calls and using “enough” and “too”
- Words which are always plural, e.g. “scissors”, “overalls”, “premises”, “tweezers”, “pincers” and “pliers”
- Words which have different general and technical meanings.

Yuqoridagi mavzular barcha muhandislik yo’nalishlari uchun birdek mos keladi. Dars jarayonida yuqoridagi mavzularni birdek qamrab olish darsni samarali o’qitishga yordam beradi. Dars jarayonida o’quv materiallarini tashkil qilishda barcha til ko’nikmalarini, jumladan: speaking va listening ko’nikmalarini qamrab olish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.W. Weisberg, Creativity and knowledge: A challenge to theories, in Handbook of creativity, New York, NY, US: Cambridge University Press, (1999)
2. T. Hutchinson, A. Waters (1987), English for Specific Purposes: a Learning-Centered Approach, Cambridge, Cambridge University Press, (1987).
3. B. Jeffrey, A. Craft, Teaching creatively and teaching for creativity: distinctions and relationships. Educational Studies, 30 (1), (2004).
4. www.usingenglish.com



БАДИИЙ МАТНДА ТАГМАЪНО ФАОЛЛАШУВИНИНГ КОГНИТИВ-ДИСКУРСИВ ШАРТЛАРИ

Шукуров Уктам Баходирович -
Самарқанд давлат чет тиллари
институтини мустақил изланувчиси
Телефон: +998973944422
e-mail: shukurov.uktam92@gmail.com

Аннотация: мақолада матнлараро алоқалар доирасида юзага келадиган ҳодиса, яъни тагмаънонинг бадиий матнда фаоллашувининг когнитив-дискурсив шартлари хусусида сўз юритилиб, унинг турли ифода воситаларига эга ҳодиса эканлиги, гап, абзац, алоҳида асар кўринишидаги ҳикоя қабилар матнида зуҳр топиши, бу ҳолатларнинг барчасида матн таркибида яширинган маъно маълум бир лисоний воситаларнинг коммуникатив имкониятларига, уларнинг матн деривациясидаги иштирокига асосланиши, ушбу воситалар дискурсив фаоллашув муҳитида ўзаро алоқага киришиб, бир-бирини тўлдириб бориши келтириб ўтилган ва бадиий матндан олинган мисоллар ёрдамида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: тагмаъно, гап, яширин ахборот, абзац, дискурсив фаоллашув, бадиий матн, синтактик компрессия, вариативлик

Ҳар қандай бадиий асарда мантиқий ва моддий асосга эга бўлган ахборотдан ташқари, ўқувчидан ижодий фаолликни талаб қилувчи яширин ахборот ҳар доим мавжуд. Лекин ушбу ахборотни қайта тиклаш, тўлдириш қандайдир фавқулудда ҳаракат натижаси эмас, балки муаллифнинг прагматик мўлжалига асосланади. Шу боис, бадиий асар образларида яширинган маънолар заҳираси чегараланган. Услубшунос И.В. Арнольд таъкидлаганидек, “матнни изоҳлаш имкониятининг чегараси бор. Изоҳлардаги турли-туманликнинг имконияти матннинг ўзида, унинг тузилишида ва қисмлар ўртасида боғлиқликда мавжуд. Ушбу чегарадан чиқиш мазмунни тўғри тушунишдан кўра, унинг бузилишига олиб келади” (Арнольд 1990: 45).

Кўшимча маънони излаш ҳаракати одатда семантик ўхшашлик, вариативлик ҳодисаларини аниқлашга имкон беради. Тагмаъно шаклланиши жараёнида вариативлик, турли сатҳларга оид лисоний бирликларнинг ўзаро алоқага киришуви муҳимдир. Тагмаъно, шунингдек, матнлараро алоқалар доирасида юзага келадиган ҳодисадир, зеро “матн парчасининг ботиний мазмуни бошқа бир, олдинги парчадаги ахборот билан боғланади” (Сильман 1969: 84). Тагмаъно эгаси бўлган матн парчаси айни шу асарда олдинроқ баён қилинган воқеа, вазият билан алоқадор бўлиши бадиий ижодга хос ҳодисадир.

Масалан, Э.Хемингуэйнинг “Бизнинг давримизда” тўпламига киритилган ҳикоялар сюжети ўзаро боғлиқ, уларда бош қаҳрамон Ник Адамснинг ахлоқий, эмоционал, оилавий кечинмалари баён қилинган. Айнан шу сабабли “Биг-Риверда” (On Big-River) ҳикоясини бошқа ҳикоялардан бошланадиган занжирнинг якуний тугуни сифатида қараш мумкин. Ушбу ҳикоя матнида Никнинг кўп йиллар давомида қалбида тўплан оғриқ ўз тасвирини топган. Тўпламга киритилган бошқа ҳикояларда ҳам умумлашган ҳолда шафқатсиз олам тасвирланган. Ушбу оламнинг қонун-қоидалари ўта шафқатсиз, ҳар қадамда хавф-хатар ҳозир. Ёзувчи ўз ўқувчисини “бу олам ҳар қандай кишини синдиришига” ишонтиришга ҳаракат қилади.

“Бизнинг давримизда” тўпламида воқеликнинг ушбу тасвирига тассавурдаги идеал модел яъни табиат қарама-қарши қўйилган. Ажойиб ва соф Биг-Ривер дарёси оқаётган заминга қадам қўйган Ник Адамс тамоман бошқа дунёда пайдо бўлади. Аммо Ник бу дунёга бирданига қадам қўйгани йўқ, зеро ҳикоя ваҳимали ёнғин тасвири билан бошланади:

The was no town, nothing but the rails and the burned - over country. The thirteen saloons that lined the one street of Seney had not left a trace. The foundations of the Mansions House hotel stuck up above the ground. The stone was chipped and split by, the fire. It was all that was left of the town of Seney. Even the surface had been burned off the grounds (E.Hemingway. In our time, p.205).

Ёнғин оқибати ўқувчи кўз олдидан қайта-қайта ўтади: Seney was burned, the country was burned over and changed (p. 208); The burned country stopped off at the left with the range of



hills (p. 209).

Кўримсиз пейзаж, ёнган дарахтлар, куйган тупроқ, охиригача ёниб кул бўлган шаҳар Никнинг ҳолатига ишора қилади. Буларнинг барчаси ҳали ўзига келиб улгурмаган Никнинг хиссиётларини тасвирлашга ёрдам беради. Ник ҳаёт-шафқатсизлигининг барча зарбаларига душвор бўлди ва у ҳаётдан чарчаган. Энди эса, ёшлигидан таниш бўлган дарё соҳилида воқеликдан тополмаган тартиботни топмоқчи, яшаш мазмунини англаб етмоқчи. Мазкур тағмаъно ҳикояда ошқора ифода этилмаса-да, лекин ўқувчига яширин мазмунни излаш ва тушуриб қолдирилган жойларни тўлдириш имкони тақдим этилган.

Э. Хемингуэй, ҳар ҳолда, иккинчи даражали гап бўлақларини бутунлай инкор этмайди. Лекин улар Никнинг ҳаракатлари тартибли ва оқилона эканлигини таъкидлаши лозим:

In the pack he found a big onion. He sliced it in two and peeled the silker outer skin. Then he cut one half into slices and made onionion sandwiches. He wrapped them in oiled paper and buttoned then in the outer pocket of his khaki shirt (p. 221).

Баъзилар Э.Хемингуэй синтактик ихчамлик усулидан кенг фойдаланади, деган фикрни билдирадилар. Бироқ Хемингуэй аслида воқеалар баёнида ихчамликни синтактик компрессия ҳисобидан эмас, балки тасвирий воситаларнинг қунт ила танлови асосида эришади. Ёзувчи мураккаб грамматик тузилмаларни қўллашдан унчалик тортинмайди. Баъзан биргина гап матннинг бутун бир абзаци ўрнини олиши мумкин ва сифатдош ибораларининг ишлатилиши тасвирнинг узлуксизлигини, давомлилигини таъкидлайди.

Матннинг кейинги қисмида Никнинг ҳаётнинг мураккабликларидан узоқлашишга бўлган истаги тасвирланади. Бу ўринда like феъли янги қўшимча маъно касб этади: While he waited for the coffee to boil, he opened a small can of apricots. He liked to open cans (p. 220).

Бу ерда гап Никка консерва қутисини очиш ёқиши ҳақида эмас. Тағмаъно бошқача: у энди таътилда ва ҳеч нарса ҳақида ўйламасдан яшаши мумкин.

Шундай қилиб, олиб борилган таҳлил тағмаъно турли ифода воситаларига эга ходиса эканлигидан гувоҳлик беради. Тағмаъно гап, абзац, алоҳида асар кўринишидаги ҳикоя кабилар матнида зуҳр топади. Аммо бу ҳолатларнинг барчасида матн ботинида яширинган маъно маълум бир лисоний воситаларнинг коммуникатив имкониятларига, уларнинг матн деривациясидаги иштирокига асосланади. Мухими, ушбу воситалар дискурсив фаоллашув муҳитида ўзаро алоқага киришиб, бир-бирини тўлдириб боради.

Адабиётлар

1. Арнольд И.В. Стилистика английского языка. - Л.: Просвещение, 1990.
2. Сильман Т.И. Подтекст как лингвистическое явление // Филологические науки, 1969. № 1. - С. 84-89.
3. Ҳақимов М., Газиева М. Пргамалингвистика асослари. - Фарғона: Classic, 420 б.
4. Hemingway E. In our time. - L.: Longman, 1989.



КЛАССИФИКАЦИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ ПО В. Н. КОМИССАРОВУ

Кодиров Аббос Ахрорович

Студент-магистрант Бухарского
государственного университета

Телефон: +998913112252

arahusish@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные проблемы при переводе, которые наблюдаются часто. И способы их правильного решения

Ключевые слова: теория перевода, исходный язык, переводящий язык.

Преобразования, с помощью которых можно осуществить переход от единиц оригинала к единицам перевода в указанном смысле, называются переводческими (межъязыковыми) трансформациями. Поскольку переводческие трансформации осуществляются с языковыми единицами, имеющими как план содержания, так и план выражения, они носят формально-семантический характер, преобразуя как форму, так и значение исходных единиц.

В рамках описания процесса перевода переводческие трансформации рассматриваются не в статическом плане как средство анализа отношений между единицами ИЯ и их словарными соответствиями, а в плане динамическом - как способы перевода, которые может использовать переводчик при переводе различных оригиналов в тех случаях, когда словарное соответствие отсутствует или не может быть использовано по условиям контекста. В зависимости от характера единиц ИЯ, которые рассматриваются как исходные в операции преобразования, переводческие трансформации подразделяются на лексические и грамматические. Кроме того, существуют также комплексные лексико-грамматические трансформации, где преобразования либо затрагивают одновременно лексические и грамматические единицы оригинала, либо являются межуровневыми, т. е. осуществляют переход от лексических единиц к грамматическим и наоборот.

Основные типы лексических трансформаций, применяемых в процессе перевода с участием различных ИЯ и ПЯ, включают следующие переводческие приемы: переводческое транскрибирование и транслитерацию, калькирование и лексико-семантические замены (конкретизацию, генерализацию, модуляцию). К наиболее распространенным грамматическим трансформациям принадлежат: синтаксическое уподобление (дословный перевод), членение предложения, объединение предложений, грамматические замены (формы слова, части речи или члена предложения). К комплексным лексико-грамматическим трансформациям относятся антонимический перевод, экспликация (описательный перевод) и компенсация. Рассмотрим подробнее данные трансформации.

Транскрипция и транслитерация - это способы перевода лексической единицы оригинала путем воссоздания ее формы с помощью букв ПЯ. При транскрипции воспроизводится звуковая форма иноязычного слова, а при транслитерации - его графическая форма (буквенный состав). Ведущим способом в современной переводческой практике является транскрипция с сохранением некоторых элементов транслитерации. Поскольку фонетические и графические системы языков значительно отличаются друг от друга, передача формы слова ИЯ на языке перевода всегда несколько условна и приближительна. Вилен Наумович приводит примеры англо-русского перевода, которыми мы будем пользоваться в этом разделе: «absurdist» - «абсурдист» (автор произведения абсурда), «kleptocracy» - «клетократия» (воровская элита), «skateboarding» - «скейтбординг» (катание на роликовой доске) [11, с. 173].

Для каждой пары языков разрабатываются правила передачи звукового состава слова ИЯ, указываются случаи сохранения элементов транслитерации и традиционные исключения из правил, принятых в настоящее время. В англо-русских переводах наиболее часто встречающиеся при транскрибировании элементы транслитерации заключаются, в основном, в транслитерации некоторых непроизносимых согласных и редуцированных гласных («Dorset» [ˈdasit] - «Дорсет», «Campbell» [ˈkaɪnbaɪl] - «Кэмпбелл»), передаче двойных согласных между гласными и в конце слов после гласных («Bonners Ferry» - «Боннерс Ферри», «boss» - «босс»). Кроме того, в сохранении некоторых особенностей орфографии слова,



позволяющих приблизить звучание слова в переводе к уже известным образцам («Hercules missile» - «ракета «Геркулес»», «deescalation» - «деэскалация», «Columbia» - «Колумбия»). Традиционные исключения касаются, главным образом, освященных обычаем переводов имен исторических личностей и некоторых географических названий («Charles I» - «Карл I», «William III» - «Вильгельм III», «Edinburgh» - «Эдинбург»). [11, с. 173].

Калькирование - это способ перевода лексической единицы оригинала путем замены ее составных частей - морфем или слов (в случае устойчивых словосочетаний) их лексическими соответствиями в ПЯ. Сущность калькирования заключается в создании нового слова или устойчивого сочетания в ПЯ, копирующего структуру исходной лексической единицы. Именно так поступает переводчик, переводя «superpower» как «сверхдержава», «mass culture» как «массовая культура», «green revolution» как «зеленая революция». В ряде случаев использование приема калькирования сопровождается изменением порядка следования калькируемых элементов: «firststrike weapon» - «оружие первого удара», «landbased missile» - «ракета наземного базирования», «Rapid Deployment Force» - «силы быстрого развертывания». Нередко в процессе перевода транскрипция и калькирование используются одновременно: «transnational» - «транснациональный», «petrodollar» - «нефтедоллар», «miniskirt» - «мини-юбка» [11, с. 174].

Конкретизация, генерализация и модуляция объединяются общим названием: лексико-семантические замены.

Лексико-семантические замены - это способ перевода лексических единиц оригинала путем использования в переводе единиц ПЯ, значение которых не совпадает со значениями исходных единиц, но может быть выведено из них с помощью определенного типа логических преобразований. Основными видами подобных замен являются конкретизация, генерализация и модуляция (смысловое развитие) значения исходной единицы.

Конкретизацией называется замена слова или словосочетания ИЯ с более широким предметно-логическим значением словом и словосочетанием ПЯ с более узким значением. В результате применения этой трансформации создаваемое соответствие и исходная лексическая единица оказываются в логических отношениях включения: единица ИЯ выражает родовое понятие, а единица ПЯ - входящее в нее видовое понятие:

«Dinny waited in a corridor which smelled of disinfectant». - «Динни ждала в коридоре, пропахшем карболкой». «He was at the ceremony». - «Он присутствовал на церемонии» [11, с. 174].

В ряде случаев применение конкретизации связано с тем, что в ПЯ отсутствует слово со столь широким значением. Так, английское существительное «thing» имеет очень абстрактное значение («an entity of any kind») и на русский язык всегда переводится путем конкретизации: «вещь, предмет, дело, факт, случай, существо» и т. д.

Список использованной литературы

1. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Ленинград: Просвещение, 1973. - 295 с.
2. Алексеева И.С. Введение в переводоведение. - М., 2004. - 352 с.
3. Бархударов Л.С. Язык и перевод (вопросы общей и частной теории перевода), - М.: Международные отношения, 1975. - 240с.
4. Бархударов Л.С. Некоторые проблемы перевода английской поэзии на русский язык // Тетради переводчика. - М.: Высш. шк., 1984. - Вып.21. - С.38-48.
5. Бархударов Л.С. О поверхностной и глубинной структуре предложения // Вопросы языкознания. - 1973. - №3 - с.50-61



КОНЦЕПТ «СЧАСТЬЕ» В ЛИРИКЕ С. ЕСЕНИНА

Шарипова Умида Шавкат кизи

Студент-магистрант Бухарского государственного университета

Телефон: +998974876766 Sh.umida_@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются концепт, который имел наиболее частое отражение в лирическом творчестве Сергея Александровича Есенина.

Ключевые слова: концепт, концепт «счастье», лирика С. Есенина, поэтическая речь.

С лирикой С.Есенина русской языковой картине мира непосредственно связана тема счастья. Счастье является «целью» любви; идеальная любовь способна «дать человеку ощущение счастья».

Однако роль счастья в русской языковой картине мира к этому не сводится. Можно утверждать, что концепт счастья является для неё одним из ключевых. При этом для слова счастье можно выделить два круга употреблений: счастье-1 «удача» и счастье-2, «когда человеку так хорошо, что у него не остаётся неудовлетворённых желаний». Аналогичные употребления выделяются и у прилагательного счастливый.

Счастье-1 целиком принадлежит к сфере «бытового». Оно не зависит от личных усилий и заслуг человека.

Главная особенность счастья-2 в русской языковой картине мира заключается в том, что оно в основном принадлежит воображаемому миру. Самые характерные контексты употребления слова счастье — это высказывания о несостоявшемся счастье, мечты о будущем счастье или пожелания кому-либо счастья, а также общие рассуждения о том, чего кому-то не хватает для полного счастья, или просто о том, что такое счастье (А. Гайдар).

В поэтической речи Есенина концепт «счастье» является довольно частотным в употреблении; он тесно связан по своему значению с рассмотренным выше концептом «любовь». Проиллюстрируем общее понятие счастья в поэзии Есенина: «Я счастлив тем...», «Мальчик такой счастливый», «Есть в дружбе счастье оголтелое...», «Все мы обмануты счастьем», «Многие видел я страны, / Счастья искал повсюду...», «Вот оно, глупое счастье / С белыми окнами в сад!», «Синее счастье! Лунные ночи!», «Мало счастьем дано любоваться», «Я искал в этой женщине счастья», «О верю, верю, счастье есть!», «Рад и счастлив душу вынуть», «Счастлив, кто жизнь свою украсил / Бродяжной палкой и сумой».

С концептами «любовь» и «счастье» по своему эмоциональному тону тесно связано и понятие радости. Рабиндранат Тагор, индийский учёный, писатель и мудрец, считал: «Радость присутствует везде. Она — в зелёном ковре травы, устилающем землю, в голубой безмятежности неба, в молчании зимы <...>. Лишь тот постиг окончательную истину, кому ведомо, что весь мир, вся вселенная — это творение радости» [3, с. 62].

Есенин умел видеть радость во всём, умело показывать ее другим. Именно поэтому концепт «радость» стоит наряду с рассмотренными ранее понятиями эмоционального мира человека. В чём же есенинская радость? — «В сердце радость детских снов», «Радуют тайные вести», «Рад и счастлив душу вынуть», «Я рад и охоте», «Я с радости чуть не помер», «Хмельному от радости пересуду нет», «Иные в сердце радости и боли», «Сон мой радостен и кроток / О нездешнем перелеске», «Как белка на ветке, у солнца в глазах / Запрыгала радость...», «Заигрался в радости младенец», «И так радостен мне над пушей / Замирающий в ветре крик».

Таким образом, поэтическая речь Есенина насыщена положительными психоэмоциональными состояниями человеческой души: любовь, счастье, радость, свет, тепло, кротость, поцелуй, мечта, грёзы, ласка, песня, нежность, покой, молитва, отрада, сквозь призму которых мир предстает светлым, ярким, живым разноцветьем, постоянно обновляющимся, меняющимся.

Мастерство Есенина заключается в создании сложной, внутренне единой и вместе с тем бесконечно разнообразной картины мировосприятия героя при помощи различных языковых средств и законов поэтической речи. Но только положительные эмоции не в силах дать человеку полное, цельное восприятие жизни. Полнота жизни — в сочетании всех видов эмоций и чувств.



Список использованной литературы:

1. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М., 1998. 352 с.
2. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж, 1996. 295 с.
3. Базанов В.Г. Сергей Есенин и крестьянская Россия. М.: Сов. писатель, 1982. 303 с.
4. В мире Есенина. М.: Советский писатель, 1986. 656 с.
5. Ейгер Г. В., Раппорт И. А. Язык и личность. Киев, 1991. 263 с.
6. Есенин С. Стихотворения. М.: Наука, 2002. 150 с.



“MAJOLIS UN-NAFOIS” ASARIDAGI AYRIM SHAXS NOMLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Jo'rayeva Nigora Bahtiyor qizi

NamDU 2-bosqich magistranti

Telefon: +998911231468

n.jorayeva_94@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs nomini tasniflashga leksik jihatdan yondoshgan holda leksemalarning mazmuniy tomoni yoritiladi. Bunda asosan shaxs nomlarining semantik xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Leksema, semasiologiya, sema, semema, semantik struktura, shaxs nomi, denotativ ma'no, birlashtiruvchi sema, farqlovchi sema.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda sistemaviy tadqiqotlarga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bu tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, lingvistik faktlarga avtanom holda yondashmay, har qaysi hodisaning ostida yashirinib yotgan mohiyatning ochilishiga e'tibor beriladi. Tadqiqotchi diqqati ko'proq lingvistik hodisalar o'rtasidagi munosabatni yoritishga qaratiladi. Struktur tilshunoslikning otasi hisoblangan F.de Sossyur tilshunoslar diqqatini lingvistik birliklar orasidagi munosabatni ochishga qaratib, munosabatning paradigmatik va sintagmatik turlari mavjudligini ko'rsatgandi¹.

Keyingi yillarda so'zning ko'p qirrali hodisa ekanligini hisobga olib, leksik birlik sifatida uni leksema deb yuritish odat tusiga kirdi. Leksik sathda so'zning emas, balki leksemalarning ko'p ma'noligi haqida gapirish o'rinli bo'ladi. Shuningdek bunday leksemaga birlashuvchi ya'ni unga aloqador leksik ma'nolarni semema deb nomlashga o'tildi.

Semasiologiyada sememaning semantik strukturasi atrofficha o'rganilmoqda. Bunday strukturani ochishda uning semalar sostavini aniqlash juda muhim sanaladi. Semema esa tarkibiy qismlarga – semalarga ajratib o'rganilmoqda. Bu nuqtai nazarga ko'ra, sema sememaning ma'no mundarijasini tashkil etib turuvchi semantik birlik hisoblanadi. Shuningdek semema asosida leksik ma'no yotadi. Ana shu leksik ma'nolarni biz semalar sifatida izohlab, shaxs nomlarini tahlil qilamiz.

Izohli lug'atlarda personal so'zining shaxslarga nisbatan qo'llanilishi etirof etiladi. Shunga ko'ra “shaxs” semasi bilan birikkan va umumlashgan shaxs nomlari personallik (shaxsiy, alohidalik) maydoniga mansub bo'ladi. Shaxs nomlarini leksik jihatdan tadqiq qilinishi va tilshunoslikda ular maydon nazariyasi asosida o'rganilishini biz professor Sh. Iskandarovanning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilida ushbu mikromaydonga mansub birliklar tilning turli sathlarida kuzatiladi. Shaxs nomlari guruhi o'zbek tili leksik qatlamining o'ziga xos keng qamrovli ma'noviy (semantik) qismini tashkil etadi. Shaxs nomlari maydoni boshqa leksik birliklardan “shaxs” umumiy semasi bilan ajratiladi, unda shaxsni nomlash bilan bir qatorda, egalarning xatti-harakatlari, fe'l-atvori xususida ham ma'lumot olinadi.²

Ot leksemalar ichida shaxs nomlari alohida o'rin egallaydi. M. Abdiyev tadqiqotlariga ko'ra o'zbek tilida bu guruhga mansub bo'lgan o'n mingdan ortiq leksemalar mavjud.

Shaxs nomlari o'zbek tili leksikasidan “shaxs” umumiy belgisi asosida ajratiladi. Bu belgi esa shaxs nomlari guruhiga mansub bo'lgan so'zlarni birlashtiruvchi invariant sema sifatidagi vazifani bajaradi.³ Bizningcha shaxs nomlari yuqoridagi umumiy belgidan tashqari mashg'ullik, qon-qarindoshlik, yosh, jins kabi belgilarga ham ega bo'ladi. Shaxs nomlari insonni turli belgilar egasi sifatida ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridagi ayrim shaxs nomlari semantikasiga to'xtalib o'tamiz.

Asarda 300dan ziyod shaxs nomlari qo'llangan bo'lib, ularning har qaysinisi bir-biri bilan umumiy va xususiy semalariga ko'ra farqlanadi.

Asarda *shoir, kotib, oshpaz, nonvoy, navkar, mulozim, tabib, kimyogar* kabi bir qator shaxs

1 Абдулхамид Нурмонов Танланган асарлар. Тошкент; “Академнашр” 2012 й. III том 60 бет.

2 Ш. Искандарова “Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш”: Филол. фан. докт. дисс. Тошкент, 1999.

3 А. Нурмонов Ш. Искандарова “Ўзбек тилидаги шахс номларини тизим сифатида ўрганиш” Ўзбек тили ва адабиёти. 1995-йил, 5-сон.



nomlari mashg'ullik semasiga ko'ra kasb bildiruvchi leksemalardir. Bu xususiyatiga ko'ra yuqoridagi leksemalar umumiylikni ifodalasa-da, ayrim xususiy semalariga ko'ra farqlanadi. Masalan, shoir va kotib leksemalarini olaylik. Dastlab, ushbu shaxs nomlarini denotativ ma'nosiga, ularning doimiy belgisiga amal qilgan holda tasniflaymiz.

Shoir – ijod qilish qobiliyatiga egalik, yozishda ixtiyoriylik, savodxonlik, erkak jinsiga mansublik, yoshda chegarasizlik kabi semalarga ega.

Kotib – ilmiy salohiyatga egalik, yozishda majburiylik, savodxonlik, asosan erkak jinsiga mansublik, yoshda chegarasizlik kabi semalariga ega. Ko'rinib turibdiki, bu ikki leksema savodxonlik, erkak jinsiga mansublik, yoshda chegarasizlik semalari bilan umumiylikni tashkil qilsa ham, ijodkorlik-ilmiylik, yozishda ixtiyoriylik-majburiylik semalariga ko'ra farqlanadilar. Bu semalar ularning xususiy tomonlaridir.

Oshpaz va nonvoy leksemalarida esa ularni birlashtiruvchi sema: “yegulik mahsulotlarini tayyorlovchi” bo'lsa, farqlovchi semalari: oshpaz – “har qanday yegulik tayyorlovchi”, nonvoy – “non mahsulotlarini tayyorlovchi”. Ular kasb bildiruvchi shaxs nomi sifatida bir qatorda turadi, lekin kasbi nimaga yo'nalganligiga ko'ra bir-biridan ajratiladi. Bu leksemalar tabiati qanchalik murakkabligini ham ko'rsatadi.

Navkar va mulozim leksemalari yuqori martabali insonga qaram bo'lib ishlash semasiga ko'ra umumiylikni ifodalaydi. Ularni farqlovchi semasi esa “harbiy salohiyatga egalik”dir. Bu sema navkar leksemasiga tegishli bo'lib, mulozim leksemasi bu semantik xususiyatga ega emas. Har bir leksemaga mansub bo'lgan bir nechta semalar ularni izohlash uchun ham xizmat qiladi.

Yuqoridagilarning barchasi “shaxs” semasi jihatidan bir umumiy mazmunni ifoda qiladi. O'z ichida yana boshqa bir nechta semalarga ham ega bo'lib, birlashtiruvchi va farqlovchi semik qatorlarda taqqoslanadi.

Asarda *ustod, shogird, shayx, murid* kabi shaxs nomlari ko'plab o'rinlarda qo'llanganini ko'ramiz. Bu leksemalar birinchi navbatda ilm berish va ilm olish semalarini o'zida mujassam etadi. Ustod va shayx leksemalarida birlashtiruvchi sema: “ilm beruvchi”, farqlovchi semalari esa: ustod-“dunyoviy ilm beruvchi”, shayx-“diniy ilm beruvchi”. Aynan farqlovchi semalari tufayli bu ikki leksema alohida shaxs semalarini ifoda qiladi. Shogird va murid leksemalari ham “ilm o'rganuvchi”, “erkak jinsiga mansub”, “yoshi chegaralanmagan” semalari umumiylikni ifodalab birlashtiruvchi xususiyatidir. Shogird-“mustaqil”, “dunyoviy ilm oluvchi”, kabi xususiy semalari bilan murid – “qisman qaram”, “diniy ilm oluvchi”, semalariga zidlanadi.

Leksemalardagi mavjud har bir sema ana shu leksemaning qaysidir qirrasini ya'ni xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Asarda qon-qarindoshlikni ifodalovchi *ota, farzand, o'g'il, ini, og'o, xotun* kabi shaxs nomlari ham talaygina. Ulardan ota, farzand, o'g'il, ini, og'o leksemalari “erkak jinsiga mansublik” semasi bilan birlashgan holda xotun – “ayollik” semasi ega bo'lgan leksemaga zidlanadi.

Ko'rinadiki, shaxs nomlari ham muayyan tuzilishga ega bo'lgan kichik bir sistemadir. Har bir shaxs nomi semalari tuzilishini taxlil qilish, birlashtiruvchi va farqlovchi semalarini aniqlash, birlashtiruvchi semalar asosida ularni ma'lum guruhlarga birlashtirish va ayni paytda farqlovchi semalar asosida bir leksemani ikkinchisidan farqlash bugungi o'zbek tilshunosligidagi dolzarb muammolardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдулҳамид Нурмонов Танланган асарлар. Тошкент; “Академнашр” 2012 й. III том.
2. Ш. Искандарова “Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш”: Филол. фан. докт. дисс. Тошкент, 1999.
3. А. Нурмонов Ш. Искандарова “Ўзбек тилидаги шахс номларини тизим сифатида ўрганиш” збек тили ва адабийоти. 1995-йил, 5-сон.
4. О'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent. Fan. 1995.
5. Diss.natlib.uz



MILLIY CHOLG’ULARGA OID TERMINLARNING O’RGANILISH TARIXI

Aripova Gulnoza

O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat instituti o‘qituvchisi
Telefon: +998909789227
aripova-gulnoza@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy musiqa terminlarning leksikografik tahlili haqida so‘z yuritiladi. Keyingi yillarda leksikografiyaning faqatgina amaliy tomoni emas, balki nazariy yo‘nalishi, obykti, predmeti shakllandi. Lug‘at tuzish nazariyasi, amaliyoti tilshunoslikning mahsus sohasiga aylandi. Lug‘atshunoslik tilshunoslikning mana shunday o‘ta mashaqqatli, o‘ta mas’ulyatli sohasi bo‘lganligi sababli ushbu savobli yo‘nalish bilan yetuk, fidokor, millatparvar olimlar shug‘ullanmoqdalar.

Kalit so‘zlar: musiqiy terminlar, lug‘at, leksikologiya, leksikografiya, so‘z, tahlil, san’at, adabiyot, izoh, doira.

Lug‘at tilning xazinasini, undan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish inson bilimini kengaytirish, lug‘at boyligini oshirishda hamda fikrni to‘g‘ri va ravon ifodalashda muhim omildir.

O‘z tilimizning imkoniyatlarini to‘laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda va nutq madaniyatini yuksaltirishda ham lug‘atlar muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga lug‘atshunoslik yetarli darajada mashaqqatli ish. Lug‘atshunoslikning tilshunoslikdagi eng mashaqqatli sohaligini nazariy leksikografiyaning asoschilaridan biri mashhur tilshunos akademik L.V.Sherba ham ta’kidlab o‘tgan [7]. L.V.Sherbaning lug‘at turlarini ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zaro qiyoslab o‘rganish va tahlil qilish nazariyasi hozirgi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q.

Lug‘atshunoslikni rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shgan buyuklarning nomi abadiy hurmatda bo‘ladi. Buning yorqin isboti uchun bobomiz Mahmud Koshg‘ariy nomini tilga olish kifoyadir. Uning qariyb 1000 yil ilgari yaratgan turkiy tillar tahliliga bag‘ishlangan “Devonu lug‘atit turk” asari barcha turkiy xalqlarning betakror boyligi hisoblanadi [4]. Mahmud Qoshg‘ariyning nomi esa tarix sahifalariga abadiy muhrlandi.

Bundan tashqari tarixda sharq leksikografiyasi haqida so‘z borar ekan, uning rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan yurtdoshlarimiz Alisher Navoiy, Mahmud Zamahshari, Muhammad Yoqub Chingiy, Muhammad Rizo Xoksozlarning ham o‘rni beqiyosdir.

Rus tilshunoslaridan esa A.A.Navikov, P.N.Denisov, V.V.Morkovkinlar o‘zlarining ilmiy va amaliy ishlari bilan nazariy leksikografiyaning rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

G‘arb tillari amaliy leksikografiyasi ham so‘ngi asrda yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Bu o‘rinda ingliz tilining Oxford, Webster, fransuz tilining La Rousse, olmon tilining Duden, Langenscheidt, Rossiya nashriyotlarining sermahsul va sifatli lug‘atlarini eslatib o‘tish kifoya. Bunda nazariy jihatdan asoslangan, amaliy tomondan ma‘lum maqsadga yo‘naltirilgan lug‘atlar yaratish va chop etish izchil yo‘lga qo‘yilgan. Demak, bizning nazarimizda ma‘lum bir aniq maqsadga yo‘naltirilmagan, olinayotgan-berilayotgan so‘zlarning son va sifat jihatlari ilmiy asoslanmagan, faqat tuzuvchining “ta’bi” hamda iqtidori bilan chegaralanib qolayotgan lug‘atlarni chop etish davri o‘tdi.

Alohida ta’kidlash lozimki, taraqqiy etgan mamlakatlar leksikografiyasida, ayniqsa Amerika, Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Rossiya hamda Germaniya lug‘atshunoslik amaliyotida lug‘atlarning o‘ziga xos tizimli sistemasi yaratilgan.

Yurtimiz yildan-yilga rivojlanib borayotgani sari, boshqa millat vakillarining o‘zbek adabiyoti, san’ati va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Hatto, chet-elliklarning o‘zbek cholg‘ulariga bo‘lgan qiziqishi ortib, ba’zi xorijliklar milliy cholg‘ularni chalishni ham o‘rganmoqdalar. Ta’kidlab o‘tish joizki, o‘zbek musiqa san’ati juda qadimiy bo‘lib, hozirda ham rivojlanib bormoqda. Shu bois o‘zbek musiqasiga oid ikki tillik terminlar lug‘atini yaratishga hozirgi kunda ehtiyoj katta.

Musiqaga oid lug‘atlar yaratgan olimlar: Akbarov I. “Musiqqa lug‘ati” (1997), R.Qodirov “Популярный музыкальный глоссарий” (2016), А.Должанский “Краткий музыкальный словарь” (1955), А.Л.Островский “Краткий музыкальный словарь” (1949).



O‘zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish musiqiy sozlarimiz o‘zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o‘rin tutadi. Musiqiy cholg‘ular azal-azaldan o‘zbek xalqining ma’naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o‘ziga xos xususiyatga egadir. Ayniqsa, cholg‘u ijrochiligi san’ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Uning barcha o‘ziga xos xususiyatlarini va qirralarini o‘rganish esa cholg‘u ijrochiligi amaliyotini yanada boyitishga yordam beradi.

Musiqaga oid terminlarni yaratishda, uning ilmiy nazariy ahamiyati, leksikografik talqini, etimologiyasi, lug‘at tuzish prinsiplarini o‘rganish va amaliy ishlab chiqilgan prinsiplar asosida lug‘at yaratish tilshunoslardan katta mas’uliyat talab etsa, terminologik ikki tilli lug‘at tuzish esa tilshunosdan ulkan bilim va tajribani talab etadi. Musiqasiga oid o‘zbek va ingliz tilidagi terminologik lug‘at tuzishda, avval lug‘at tuzish prinsipiga ko‘ra o‘zbek tilidagi so‘zlar kartoteka qilinadi, so‘ng esa ularning tarjimai ishlab chiqiladi. Tarjima qilinyotgan so‘zning transkripsiyasi ham ko‘rsatilishi kerak, chunki o‘zbek musiqasini va milliy cholg‘ularini o‘rganayotgan boshqa millat vakillari birinchi navbatda shu so‘zni talaffuz qilishni bilishi lozim. Misol tariqasida zarbli cholg‘ular guruhiga kiradigan doira, nog‘ora, safoil, qayroq, zang, qoshiq kabi cholg‘ularining nazariyasini o‘rganar ekanmiz, bu chog‘ularning ovozlari muayyan balandlikka ega emas, lekin cho‘zimi va usuli nota belgilari orqali ko‘rsatilishiga amin bo‘lamiz. Ushbu cholg‘ular to‘y marosimlari va xalq sayllarining faol ishtirokchilari hisoblanadi. Zarbli cholg‘ularning ichida doira va nog‘ora nafaqat jo‘rnavor, balki yakkanavor sifatida ham qo‘llaniladi [5]. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak “Navro‘z” sayllari bu cholg‘ularsiz o‘tmaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, lug‘atlarning muayyan xalq ma’naviyati va milliy madaniyatida muhim o‘rin egallashi isbot talab qilmaydigan holatdir. Lug‘atlarni doimo zamonaga hamnafas tarzda mukammallashtirib borish zarur. Hozirgi kunda o‘zbek tilining soha lug‘atlari davlat tilining rivojlantirish departamenti talablari asosida qayta boyitgan holda hashr ishlari yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmog‘da. Bunda leksikografiya qonuniyatlariga qat‘iy amal qilishni yo‘lga qo‘yish lozim. Birgina “doira” so‘zining turli lug‘atlarda turlicha yozilishi, musiqiy terminlarning izohidagi har xillikni ko‘rsatadi.

O‘zbek musiqa terminlari musiqashunoslar tomonidan atroflicha o‘rganilgan, biroq leksikograflar tomonidan jiddiy tahlil qilinmagan. Mavjudlari esa bugungi kun talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Bugungi kunda O‘zbekiston dunyoga yuz tutmog‘da ekan, milliy musiqa terminlarini qiyosiy o‘rganishga ehtiyoj yanada oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akbarov. I. Musiqa lug‘ati.-T.:1997.
2. Бархударов С. Г. Вопросы исторической лесикологии и лексикографии восточнославянских языков. – М.: 1974.
3. Қодиров Р. Популярный музыкальный глоссарий. – Т.: 2016.
4. Rustamiy S. “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi lingvistik.
5. Tashmatova A. Musiqiy cholg‘ular muzeyi katalogi. - T.: 2006.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. N-Tartibli. –T.:2007.
7. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. - Л.: 1971.



KOREYS TILIDA RAVISHNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Jaloliddinova Madina Sirojiddin qizi

O'zbekiston Davlat Jahon

Tillari Universiteti Toshkent.

E-mail: jaloliddinova.madina2403@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola koreys tilida ravishning semantik xususiyatlarini o'rganadi. koreys tilidagi mavjud ravishlarning ma'nosini beruvchi lingvistik, semantik va ekstralingvistik vositalarning o'zbek tilidagi mavjud vositalar bilan mos kelishini ko'rib chiqish. koreys tilidagi mavjud ravishlarning ma'nosini beruvchi sematik lingvistik va ekstralingvistik vositalarning o'zbek tilidagi mavjud vositalar bilan mos kelishini ko'rib chiqish.*

Kalit so'zlar: *Koreys tili, ravish, tilshunoslik, tarix, leksik tarkib, kichik guruhlar, ijtimoiy va lingvistik muhit, ta'sir, semantika, tilshunoslik, ommaviy axborot vositalari.*

ABSTRACT: *This This article explores the semantic features of adverb in Korean. to consider the compatibility of linguistic, semantic and extra linguistic means giving meaning to existing forms in Korean with existing means in Uzbek. to consider the compatibility of semantic linguistic and extra linguistic means, which give the meaning of the existing forms in the Korean language, with the existing means in the Uzbek language*

Keywords: *Korean language, adverb, linguistics, history, lexical content, small groups, social and linguistic environment, influence, semantics, linguistics, media.*

“Til – jamiyatning mavjudligi shartlaridan biri. Til – milliy madaniyat unsurlaridan hisoblanadi. Uni moddiy vositalardan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi.” Bundan xulosa shuki, til madaniyatning ajralmas qismidir. Har bir millat va xalqning noyoblighi uning tilida va bu uning ming yillar davomidashakllangan o'z tarixi, o'z madaniyatida namoyon bo'ladi. Tildan boshqa hech bir hodisa millatning o'ziga xosliklarini to'la ochib bera olmaydi. Til – inson tafakkuri ko'zguisi. Har bir davlat o'z milliy tiliga ega.

Til va madaniyatning o'zaro munosabati – ko'p qirrali murakkab masala. Turlitillarning namoyondalari bir vaqtning o'zida turli madaniyatlarning namoyondasi hamdir. Madaniyatlararo muloqot esa, birinchi o'rinda til ko'prigi orqali amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqadiki, o'zga madaniyat egasi bilan bo'lib o'tadigan har qanday muloqat, o'zga tilni o'rganish jarayoni madaniyatlararo muloqatnita'minlab berishga xizmat qiladi. Shuning uchun, koreys tilini chet tili sifatida o'rgatish jarayonida uning madaniyatini o'rgatmaslikning iloji yo'q. Chunki, til va madaniyatning o'zaro aloqasini, “milliy xarakter”ni hisobga olgan holda o'rganish kerak.

Til mehnat va ijtimoiy ong bilan birgalikda bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan, insonni hayvondan farqlovchi uchta eng muxim xossalardan biri tashkil etadi. Ushbu xossalari ichida mehnat muxim mohiyatga egadir. Chunki u jamiyat mavjudligining moddiy asosi hisoblanadi.

Tilning tafakkur, ijtimoiy ong aloqasi nihoyatda uzviy, chambarchasdir. Til belgilari-so'zlar, so'z birikmalari va gaplar- moddiy shakllar bo'lib, ularda ongning ideal mahsullari-aniq tasavvurlardan tortib eng mavhum va umumlashtiruvchi tushunchalar yoki hukumlargacha obektiv tarzda o'z aksini topadi. Til o'z giramatik qurilishi, lug'at boyligi jihatdan bir-biridan farq qiladi, lekin shu bilan birga ular barcha tillar uchun mushtarak bo'lgan umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Til davr bilan, zamon bilan hamohan ravishda o'zgarib boradi.

Koreys tili eng qadimgi tillardan biridir. Lingvistik va etnografik tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, koreys tili Ural-oltoy tillari oilasiga mansubdir. Bu oilaga turk, mongol, tibet, venger, o'zbek, fin va boshqa tillar kiradi. Koreys yozma tili (alifbosi) “Xangil”(한글) 1443 yilda koreys olimlari guruhi tomonidan ixtiro qilingan. Bu guruhga Cho Son sulolasining to'rtinchi qiroli (van) buyuk Sedjong rahbarlik qilgan. U ziyoli qiroli bo'lib, zamondoshlari uni “Sharqiy mamlakatning Yao va Shuni” deb atashgan. Bu hukmdor davrida mamlakatning ko'plab siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarini rivojlanishining yuqori cho'qqisiga erishdi. Alohida e'tibor ta'limga berilar edi. Koreys tili eng qadimgi tillardan biridir. Lingvistik va etnografik tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, koreys tili Ural-oltoy tillari oilasiga mansubdir. Bu oilaga turk, mongol, tibet, venger, o'zbek, fin va boshqa tillar kiradi.

Maqolaning maqsad va vazifalari. Koreys va o'zbek tilida ravishlarning semantik xususiyatlarini ifodalash, ularning ifodalanishidagi farqlarni belgilashni maqsad qilib oldik. Bu maqsadni



amalga oshirishda quyidagi masalalarni vazifa qilib qo'ydik:

- koreys tilida ravish so'z turkumini o'rganish va izoh berish;
- ravish so'z turkumini oid adabiyotlarni va ma'lumotlarni o'rganish va tahlil etish;
- koreys va o'zbek tilidagi ravish so'z turkumi ma'nosini beruvchi so'zlar yoki qo'shimchalarning xususiyatlarini ochib berish;
- koreys tilidagi mavjud ravishlarning ma'nosini beruvchi lingvistik, semantik va ekstralingvistik vositalarning o'zbek tilidagi mavjud vositalar bilan mos kelishini ko'rib chiqish;
- mavzuga oid muammolarni bartaraf etish yo'llarini belgilab olish.

Ilmiy yangiligi:

- koreys tilidagi mavjud ravishlarning ma'nosini beruvchi sematik lingvistik va ekstralingvistik vositalarning o'zbek tilidagi mavjud vositalar bilan mos kelishini ko'rib chiqish;

Ravish — mustaqil so'z turkumlaridan biri; harakat va holatning belgisini, shuningdek, belgining belgisini bildiradi. R.larning quyidagi ma'noviy turlari mavjud: holat (tarz) ravishlari (tez, sekin, piyoda kabi); o'rin ravishlari (uzoqda, yaqindan, pastda kabi); payt ravishlari (hozir, kecha, bugun kabi); darajamiqdor ravishlari (ancha, sal, kam kabi); maqsad ravishlari (ataylab, jo'rttaga kabi); sabab ravishlari (noiloj, ilojsiz, chorasizlikdan kabi). Payt, o'rin va maqsad ravishlaridan boshqa barcha ravishlarni, eng umumiy xususiyatlariga ko'ra, bir turga kiritish va ularni holat (tarz) ravishlari deb atash mumkin.

Ravish mustaqil so'z turkumi sifatida quyidagi morfologik xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1) daraja kategoriyasiga ega: tez, ko'p (oddiy daraja) — tezroq, ko'proq (qiyosiy daraja) — eng tez, juda ko'p (orttirma daraja) kabi;

2) o'zgarmas bulib, ko'pincha fe'llarga bog'lanib keladi: So'rida qat-qat duxoba ko'rpachalar ustma-ust to'shalgan edi;

3) ravish ayrim o'rinlarda sifat va otga bog'lanib kelishi ham mumkin. Bunday hollarda ravish belgining belgisini yoki predmetning belgisini emas, o'zi bog'lanib kelgan sifat yoxud otdan anglashilgan harakatlarning belgisini bildiradi: Kecha havo juda sovuq edi. U hozir beqiyos va tasavvur qilib bo'lmas baxtiyor edi;

4) ravish yasovchi muxsus qo'shimchalarga ega: cha, ona, larcha, lab va boshqa;

5) turlanmaydi va tuslanmaydi (otlashish hollari bundan mustasno).

Ravishlar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi: do'stona, qahramonlarcha, oylab (morfologik usul), har zamon, shu on, bir dam (sintaktik usul) kabi. Ravishlar tuzilishiga ko'ra, sodda (kamtarona, vijdonan, butunlay), qo'shma (har dam, bir yo'la, ozmuncha, har qachon), juft (kechakunduz, qishin-yozin) va takroriy (ozoz, tez-tez, ko'p-ko'p) turlarga bo'linadi. Ravishlarning anchagina, juda, kam, kamkam kabi shakllari modal shakl hisoblanadi. Ravishlar gapda hol, aniqlovchi va kesim vazifalarida keladi.

Ravishlar belgi anglatish xususiyatlari bilan sifatlariga uxshaydi, ammo grammatik xususiyatlari jihatidan ular o'zaro farqlanadi: sifatlar predmetning belgisini, Ravishlar esa harakat yoki holatning belgisini bildiradi; ularning gapdagi, ya'ni sintaktik vazifasi ham o'zgachadir.

Grammatik shakllarning ko'makchi fe'lga qo'shilishi qo'shilmaning yaxlit bo'linmasligini ko'rsatadi. Shuning uchun bu struktura tarkibiga boshqa leksik birliklarni qo'shib bo'lmaydi. Bu holatni, odatda, fe'llar bilan birga qo'llanuvchi ravish leksemalar orqali ko'rsatish mumkin. Ma'lumki, ravishlar fe'lning holatini aniqlab, gapda ma'lum sintaktik vazifani bajaradi. Ularning noo'rin ishlatilishi esa gap strukturasi va semantikasining buzilishiga olib keladi. Quyida ravishlarning ko'makchi fe'lli birikma, qo'shma fe'l va qo'shma gapning kesimlari bilan qo'llanilishi misollarda ko'rsatilgan.

1. 나중에 내가 결석계를 써 주마 . Keyinroq yo'qlama ro'yxatini yozib beraman.

Gapdagi 써 주마 «yozib beraman» – ko'makchi fe'lli birikma hisoblanadi. Agar ko'makchi fe'lli birikmadan oldin ravish qo'llanilsa, quyidagi holat kuzatiladi:

2. 나중에 내가 결석계를 다 써 주마. Keyinroq yo'qlama ro'yxatining hammasini yozib beraman.

3. 나중에 내가 결석계를 빨리 써 주마. Keyinroq yo'qlama ro'yxatini tezda yozib beraman.

Ko'rindiki, ravishlar ko'makchi fe'lli birikmadan oldin qo'llanilsa, gap har jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'ladi. Ammo ravishlar ko'makchi fe'lli birikma o'rtasiga qo'yilsa, quyidagicha bo'ladi:

4. 나중에 내가 결석계를 써 다 주마*. Keyinroq yo'qlama ro'yxatini yozib, hammasini beraman.

5. 나중에 내가 결석계를 써 빨리 주마*. Keyinroq yo'qlama ro'yxatini yozib tezda beraman.



Ravishlar etakchi va ko‘makchi fe‘llar orasiga qo‘yilganda, gap mazmunining buzilishi, keltirilgan misollarda ravish 주다 [chuda] fe‘lining holatini ifodalashi 4- va 5 - gaplarda ko‘rsatilgan.

Xulosa. Shunday qilib, koreys va o‘zbek tillaridagi ravishning semantic xususiyatlarini o‘rganish til o‘rganishning munim hususiyatlaridan biridir. Koreys tilidagi ravishlar tushunchalar bilan birga keladi. Bunga tilning istalgan tushunchasini aniq yoki batafsil yetkazib berishi, uning turli xil so‘zlarga qo‘shilishi bilan uning semantik ma‘nolarini farqlashi, so‘zning semantik tuzilishini soddalashtirishi kiradi.

Foydalanilgan axborotlar ro‘yhati.

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik”. Toshkent: Tasvir 2021.
2. Boltayeva G. “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”. – Toshkent: Navoiy 2009.
3. Jo In Hwa. “Koreys tili grammatika lug‘ati”. – Toshkent: KOICA 2011.
4. 이정명. 바람의 화원. -서울. -2014.
5. 이정명. 뿌리깊은나무. -서울. -2014.
6. 이정명. 뿌리깊은나무. -서울. -2014
7. 박종화. 임진왜란. -서울. -2014.
8. 사감과 러브레터. 현진건. -서울. -2014.



О‘QUVCHILARNI XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORLASHDA MATN BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI

Saydullayeva Nargizaxon Ganijonovna

Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
6-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan maktab
internati Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada PISA dasturi va o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashda matn bilan ishlashning ahamiyati borasida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: PISA, matn, topshiriq, tadqiqot, nutq, o‘qish savodxonligi, fikr, so‘z.

Ma‘lumki, ona tili ta‘limining bosh maqsadi og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasi, to‘g‘ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirish, o‘quvchilarni imlo va uslubiy jihatdan savodxon qilishdan iborat. Ona tili darslarida og‘zaki hamda yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish ancha murakkab jarayon bo‘lib, unda savodxonlik, ijodiylik, fikrni aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon eta olish muhim hisoblanadi. Yozma nutq savodxonligi o‘quvchidan o‘z fikr-qarashlarini tilning imloviy-grammatik qoidalari, adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda ifodalashni talab etadi. Og‘zaki nutqda esa bolaning fikrlash qobiliyati, tafakkuri, dunyoqarashi, ohangni o‘z o‘rnida qo‘llashi juda muhim. Demak, biz o‘quvchi-yoshlarda mana shu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni matn bilan ishlashga o‘rgatmog‘imiz lozim. Zero, PISA xalqaro tadqiqotining o‘qish savodxonligi yo‘nalishida ham matnlar asosida tuzilgan test savollari ustida ish olib boriladi.

Xo‘sh, o‘qish savodxonligi qanday tushuncha o‘zi? O‘qish savodxonligi – insonning matnni tushunish va undan foydalana olish qobiliyati, bilim va imkoniyatlarini kengaytirishi, o‘z maqsadiga erishish uchun ijtimoiy hayotda munosib ishtirok etishi. O‘qish-bu shunchaki harflarni qo‘shib so‘z hosil qilish yoki ovoz chiqarib mutolaa qilish emas, balki matn bilan chuqur ishlab, undan ma‘no keltirib chiqarishdir. O‘qish savodxonligida o‘quvchilar matndan axborotni topish va ajratib olish, sharhlash, matndan tashqari bilimlarga tayanish, tushunish hamda baholash, matn mazmunini anglash kabi ko‘nikmalarni hosil qiladi. Umuman olganda, o‘qish savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, puxta tekshirishlar asosida maqsadga yo‘naltirishni anglatadi.

PISA dasturi o‘qish savodxonligini ma‘lum bir matn asosidagi mashqlardan foydalanish orqali baholaydi. O‘qish savodxonligining mazmuni vaziyat, matn va o‘qish malakasidan iborat. Matn namunalari ma‘lum bir vaziyatlarga asoslangan bo‘lib, bu vaziyatlar shaxsiy, ijtimoiy, o‘quv va rasmiy kabi turlarga bo‘linadi. O‘qish malakasi matn hamda matndan tashqari bilimga tayanadi. Matnga tayanish-undan axborotni topish va ajratish, matndagi xabarni umumlashtirish va sharhlashni anglatsa, matndan tashqari bilimga tayanish matnni mazmuni va shakliga ko‘ra anglash hamda baholashni bildiradi. Bundan tashqari matnlar formatiga ko‘ra yaxlit, yaxlit bo‘lmagan, aralash, murakkab kabi turlarga bo‘linadi.

O‘qish savodxonligini baholash o‘quvchilar bilimni sinashga mo‘ljallangan matn va shu matn bo‘yicha tayyorlangan savol-topshiriqlarga asoslanadi. O‘qish savodxonligi o‘lchamlari topshiriqlar murakkabligi (oson yoki murakkab), savollar shakli (ochiq yoki yopiq), javoblarning balli baholanishi (qisman baholash modeli) ni o‘z ichiga oladi. Berilayotgan topshiriqlar qiyinlik darajasiga ko‘ra osondan murakkabga qarab tartiblanadi. Ochiq savollar o‘quvchilardan erkin, aniq va asoslangan javoblar talab etsa, yopiq savollarda tayyor holda berilgan to‘rt-besh javobdan bitta to‘g‘risi tanlanadi yoki hodisalar ro‘yxatiga tegishli raqamlar qo‘yiladi. Shuningdek, matndan yagona to‘g‘ri so‘z javob tariqasida topilib, yoziladi.

Hozirda “PISA-2022” tadqiqotlariga o‘quvchilarni tayyorlashda ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tomonidan har bir yo‘nalish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik qo‘llanma va mashq daftarlari dasturulamal bo‘lmoqda. Shuningdek, tegishli fanlar kesimida o‘quv dasturi va darsliklar xalqaro baholash dasturi talablari asosida takomillashtirilmoqda.

O‘quvchilarni PISA tadqiqotiga tayyorlash uchun tuzilgan topshiriqlar bilan tanishib chiqamiz. Dastlab berilgan matn audio holda yoki o‘qituvchi ko‘magida tinglanadi.

Bir kuni dehqon, tegirmonchi va novvoy tortishib qolishdi.

Novvoy dedi: - Men shu mazali va chiroyli nonlarni pishirmasam, siz nima yer edingiz?

Tegirmonchi dedi: - Men bug‘doyni tegirmonimda yanchib, un qilmasam, sen bu mazali nonni



nimadan pishirarding?

Dehqon aytdi: - Agar men bug' doyni ekib ko'kartirmasam, sen tegirmonda nimani yancharding?

Ular uzoq tortishib, donishmand ota yoniga kelishdi.

Donishmand bir gap bilan ularning bahsiga yakun yasadi:

- Uchovingizning ham kasbingiz kerakli, dehqon, tegirmonchi va novvoyning kasbi eng zarur kasbdir,-dedi.

1-topshiriq. “Jumla javohirini joyla” usuli.

Bu usulda o'quvchilar aynan matni o'qish orqali gapda tushirib qoldirilgan so'zlar, ya'ni javohirlarni o'z o'rniga joylashtirishlari kerak bo'ladi.

Bir kuni, va tortishib qolishdi.

A) tikuvchi, to'quvchi, gilamdo'z

B)* dehqon, tegirmonchi va novvoy

D) duradgor, o'qituvchi, shifokor

E) haydovchi, oshpaz, raqqosa

2-topshiriq. “Tafakkur gulshani” usuli.

Bunda bolalar tanishib chiqqan matnlari g'oyasiga mos keluvchi maqol yoki hikmatli so'zni topishlari lozim bo'ladi.

Matn mazmuniga mos keluvchi maqolni toping.

A) Non yemoqchi bo'lsang,

O'tin tashishdan erinma.

B) Mehnat bilan topganing,

Qand-u asal totganing.

C) *Mehnat qilding, xo'p qilding,

Minnat qilding, yo'q qilding.

D) Nonni mehnat topgan,

Mehnatni non topgan.

3-topshiriq. “Nima deb o'ylaysiz?” usuli.

Mazkur usul yordamida bolalarning ijodiy fikrlashi hamda yozish savodxonligi rivojlantiriladi. O'qituvchi tomonidan mustaqil fikrlashga undaydigan bir yoki bir nechta savol taqdim etiladi, o'quvchilar esa bu savolga yozma javob berishlari kerak bo'ladi.

Savol: Nima deb o'ylaysiz, dehqon, tegirmonchi va novvoy nega tortishib qoldi? Bu tortishuvning asosiy mavzusi nima edi?

Javob: Chunki har bir kasb egalari o'z mehnatlarini yuksak baholaydi. Bu tortishuvning asosiy mavzusi nonning kelib chiqishida kasblarning o'z o'rnini borligini ko'rsatish edi.

To'g'ri, o'quvchi har doim ham bunday savollarga to'g'ri javob bera olmasligi mumkin, lekin, eng muhimi, unda o'z mustaqil fikrini bayon etish ko'nikmasi shakllana boradi.

4-topshiriq. “Hashar” usuli

Ma'lumki, matnning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda ayrim so'zlar yoki gaplar asosiy o'rinini egallaydi. Matn mohiyatini belgilashda ular tayanch birliklar hisoblanadi. Matn mazmunini qayta hikoya qilishda shu birliklar asos bo'ladi. “Hashar” usuli o'quvchilarda gapirish ko'nikmasini shakllantirish uchun juda qulay. Tinglangan matn yuzasidan o'quvchilar bilan birgalikda yoki alohida guruhlarda hashar yo'li bilan matnni qayta hikoya qiladilar. Bunda har bir bolaning fikri oldingi fikrning uzviy davomi bo'lishi, gaplar mazmunan bir-biriga bog'langan bo'lishi lozim.

Namuna:

1-o'quvchi: Ular uzoq tortishib, donishmand ota yoniga kelishdi.

2-o'quvchi: Tegirmonchi dedi: - Men bug' doyni tegirmonimda yanchib, un qilmasam, sen bu mazali nonni nimadan pishirarding?

3-o'quvchi: Bir kuni dehqon, tegirmonchi va novvoy tortishib qolishdi.

4-o'quvchi: Novvoy dedi: - Men shu mazali va chiroyli nonlarni pishirmasam, siz nima yer edingiz?

5-o'quvchi: -Uchovingizning ham kasbingiz kerakli, dehqon, tegirmonchi va novvoyning kasbi eng zarur kasbdir, -dedi.

6-o'quvchi: Dehqon aytdi: - Agar men bug' doyni ekib ko'kartirmasam, sen tegirmonda nimani yancharding?

7-o'quvchi: Donishmand bir gap bilan ularning bahsiga yakun yasadi.



Ana shu tariqa matn qayta gapirib beriladi, uning mazmuni o'zlashtirilishi barobarida o'quvchilar qalbida kasblarga hurmat tuyg'usi singdiriladi.

5-topshiriq. “Sarlavha sehri” usuli.

Matndagi yaxlit mavzu, mazmun, asosiy g'oya muallifning maqsadiga muvofiq uning nomi-sarlavhasida aks etadi. Darslikdagi ba'zi matnlar atayin sarlavhasiz berilib, unga mos sarlavha topish o'quvchiga qoldiriladi. Bu vaziyat bolani har qanday holatda ham o'z fikrini aytishga undaydi.

Bu usulda o'quvchilar berilgan matnga mustaqil ravishda sarlavha topadilar va galma-gal chiqib, uni yozuv taxtasiga yozadilar. Nega aynan shunday sarlavha qo'yganlarini qisqacha izohlaydilar. Matn mavzusiga mos chiroyli sarlavha topa olgan o'quvchilar alohida e'tirof etiladi va ularga nominatsiyalar beriladi. Afzalligi shundaki, topshiriqni yakka holda ham, kichik guruhlarda ham bajartirsa bo'ladi. Yuqoridagi matnga bolalar shunday sarlavha qo'yishlari mumkin:

O'quvchi yoki guruh	Tanlangan sarlavha	Berilgan nominatsiya
1-o'quvchi	Eng kerakli kasb	Munosib sarlavha
2-o'quvchi	Sharafli kasblar	Ajoyib sarlavha
3-o'quvchi	Kasblar jangi	Antiq sarlavha

Xulosa sifatida aytish mumkinki bugun biz - o'qituvchilar zimmasiga farzandlarimizni xalqaro tadqiqotlarga munosib tayyorlashdek mas'uliyatli vazifa turgan ekan, shu vazifani amalga oshirishda bor mahoratimiz va kuch-g'ayratimizni safarbar etmog'imiz lozim, zero «O'zbekiston kelajagi-o'qituvchilar qo'lida».

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Metodik qo'llanma. T-2019
2. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti www.markaz.tdi.uz.
3. PISA for development assessment and analytical framework: reading, mathematics and science © OECD 2018
4. Международный координационный центр исследования TIMSS – <http://timss2015.org/>.
5. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Tog'ayeva, «O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi», Qo'llanma, 2019y.



СЛОВАРНАЯ РАБОТА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Ибадуллаева Гавхар Саиджановна

Сырдаринская Область Баяутский район

37-школа учитель русского языка и литературы

Аннотация: В основном он не выходит за рамки обиходно-бытового словаря. Среди разнообразных видов работы, которые применяются учителем в целях повышения речевой культуры учащихся, важное место должны занимать упражнения лексического характера. Они должны способствовать расширению словарного запаса, умению выбирать из него слова, которые наиболее соответствуют содержанию высказывания и делают его не только правильным и точным, но и выразительным.

Ключевые слова: словарный запас, развитие речи, приемы и методы словарной работы, постоянная работа над словом, логическая речь.

Слово- важная единица языка, носитель значений. Словами и их сочетаниями обозначаются конкретные предметы и отвлеченные понятия, словами же выражаются эмоции. Любое речевое высказывание складывается из слов, выстроенных в определенной последовательности в соответствии с замыслом и связанных между собой грамматически. Чем богаче словарь человека, тем у него шире возможности выбора и более точного, более оригинального и выразительного оформления мысли.

Русский язык — учебный предмет, познавательная ценность которого чрезвычайно высока: на этих уроках формируется мышление, прививается чувство любви к русскому языку, через язык осмысливаются общечеловеческие ценности, воспитывается личность с постоянным стремлением совершенствоваться в знаниях и умениях, связанных с русским языком и русской культурой. Создание интереса к изучению русского языка — один из злободневных вопросов его преподавания. Дети, поступающие в школу, имеют известный круг представлений и знаний об окружающей действительности. Задача школы — расширить словарный запас ребенка, который у учащихся начальных классов бывает развит односторонне, в нём мало терминов, обобщающих слов, речь детей отличается невыразительностью, повторением одних и тех же слов, в лексическом запасе детей нет ярких, выразительных слов и выражений. Цель исследования — определить оптимальные пути, методы, приемы словарной работы с учащимися начальных классов по русскому языку, установить лексический минимум для активного усвоения, разработать научнообоснованную систему практических упражнений с учетом коммуникативной направленности обучения. Словарная работа, основанная на системных отношениях в лексике русского языка, дает возможность повысить эффективность усвоения лексических единиц учащимися, развивать их речь. Чтобы правильно развивать речь учащихся, целенаправленно и систематически работать над ней, необходимо четко представлять также требования к речи, исходить из них. В построении системы работы мы учитывали, что правильная речь должна отвечать следующим основным требованиям: содержательность, логичность, точность, ясность, правильность, доступность, действенность, уместность, выразительность. М.Р. Львов выделил следующие способы толкования значения слова: наглядный, контекстуальный способ подстановки синонимов, логическое определение, развернутое описание, подбор антонимов, анализ морфологической структуры слова и словообразования

Словарные занятия на уроках русского языка в начальных классах являются одним из основных звеньев разнообразной работы по развитию речи учащихся. Овладение словарным составом литературного языка является необходимым условием освоения учащимися родного языка: его орфоэпии, орфографии, грамматики, правильного словоупотребления, и, наконец, связной речи вообще.

В целях повышения речевой культуры видное место должны занимать упражнения, направленные на расширение активного словаря детей, а также на выработку у них умения выбирать из своего словарного запаса для выражения мысли те слова, которые наиболее соответствуют содержанию высказывания и делают его правильным, точным и выразительным. К сожалению, учащиеся, оканчивающие начальную школу, допускают ошибки в написании большого количества весьма употребительных слов с непроверяемыми орфограм-



мами. Одна из причин такого положения – недостаточность разработки методики обучения непроверяемым написаниям данного типа, неупорядоченность дидактического материала, на котором следует проводить работу, и мало научных, обоснованных рекомендаций о том, как нужно обучать этим написаниям.

Словарной работе в школе уделяется недостаточно внимания, нередко носит случайный, эпизодический характер, отчего и речь учащихся формируется и выправляется медленнее, чем того хотелось бы. Без усвоения употребительных слов с непроверяемыми написаниями учащиеся не могут в полной мере овладеть литературной речью, ее письменной формой. В соответствии с требованиями ФГОС НОО на уроках русского языка особое внимание уделяется формированию навыка функциональной грамотности. От того, насколько полно будут сформированы эти навыки в начальных классах, зависит дальнейшее обучение ребёнка в школе, его орфографическая и речевая грамотность, его способность усваивать родной язык в письменной форме. Развитие связной устной и письменной речи учащихся – основная задача обучения русскому языку в национальной школе. От степени речевого развития обучаемых зависит и овладение ими другими учебными предметами, так как русский язык является не только объектом изучения, но и средством обучения учащихся национальной школы.

Список использованной литературы:

1. <http://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-organizatsiya-leksicheskoyraboty-na-urokah-oseinskogo-yazyka-v-nachalnih-klassah>
2. Лаврова Н.М. Развитие умения пользоваться лингвистическими словарями. / Н.М. Лаврова. // Начальная школа плюс до и после. - 2015. - № 5. – С.35- 40.



BOSHLANG‘ICH SINFDA SIFAT SAMARADORLIKNI OSHIRISH VA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYADAN FOYDALANIB, RUS TILI DARSINI O‘TISH

Yuldasheva Dilfuza Nusratullaevna

Sirdaryo viloyati Boyovut tuman
4-Umumta’lim maktab rus tili va
adabiyoti fani ukituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfdagi sifat samaradorlikni oshirish va pedagogik texnologiyaning foydalanib rus tili darsini o‘tish va mediatexnologiyalardan foydalanishni kengaytirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar va masalalar xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot kommunikatsiya, sifat-samaradorlik, multimedia, mediatexnologiya.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Agar bolalar erkin fikrlashga o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatda bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘lida. Mustaqil fikrlash esa katta boylikdir. O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat». O‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtirish, o‘zi va o‘rganuvchilar uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, usul va uslublarni, o‘qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga suyangan holda o‘quv jarayoni samaradorligini integratsiyalashtirilgan ta’lim orqali rivojlantiradi. O‘quvchilarni fanlararo aloqadorlikka, mustaqil fikrlashga o‘rgatib, o‘quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishishga harakat qiladi.

Rus tilini o‘rganish jarayonida dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda rus tilini o‘rgatishga asos bo‘ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni uning g‘oyaviy yo‘nalishida va badiiy ifodaliligi o‘quvchilarning fikrlash faoliyatlariga his – tuyg‘ulariga ta’sir etadi. Atrof – muhit haqidagi bilimlarni kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, ularning shaxsiy sifatlarini belgilaydi. Demak, tilni o‘rganish jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantirishga quyidagi omillar o‘qituvchilarning metodologik pozitsiyasi, o‘quvchilar o‘zlashtiradigan til haqidagi bilimlar tizimi, o‘quvchilar o‘rganib oladigan bilim usuli, tilni o‘rganishga asos bo‘ladigan materialning bilim berishdagi g‘oyaviy-siyosiy va badiiy qimmatini hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.

SHunday ekan, Maktab bitiruvchilarimiz o‘zbek tilini bilishi bilan birga rus, ingliz va boshqa xorijiy tillarini bilishi ularni kelajakda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Umumta’lim maktablari o‘quvchilari aqliy salohiyatining o‘ziga borishi, ularning ta’lim mazmuniga chuqurroq kirib borishga intilishi, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dunyo yangiliklaridan boxabar bo‘lishga qiziqishlari o‘z-o‘zidan ma’lumki o‘qituvchilardan o‘z ustilarida tinimsiz izlanishlari bugungi kun nafasi bilan yashashi hamda ta’lim sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan boxabar bo‘lib borishni talab etadi. Bugungi zamon talabiga mos bulgan ukituvchi dars jarayonlarda nafakat zamonaviy pedagogik texnologiya xatto innovatsion texnologiyalarga asoslanib darslarni o‘tish yaxshi natijalarni bermoqda. Axborot kommunikatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash jahon amaliyotida keng qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlaridan yondashish lozim. Dars jarayoni murakkab ijodiy mashg‘ulotdir. Uning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning faolligiga bog‘liq. Ularni faollashtirish uchun axborot texnologiyalari, o‘yin, bahs, suhbat, musobaqa, sayohat, konferensiya, davra suhbat, rolli o‘yinlarni qo‘llash, kitob bilan ishlash, kompyuter mashg‘ulotlariga ko‘proq vaqt ajratish kerak. Ukituvchi dars mashg‘ulotlarida ukuvchiga juda kup narsalarni beradi. Bunda bolani xotirasi, eslab kolish kobiliyati va lugat bilan kaday ishlashi bular ukituvchining maxoratiga bog‘liq. Bugungi ukuvchi yoshlarimizning barchasi nafakat rus tilini xorijiy tillarni xam bilishsa maksadga muvofik bular edi. Bu borada Respublikamizda xalk ta’limi soxasida umumta’lim maktablarda juda kup ishlar kilinmokda. Bundayin sa’y-xarakatlar uz natijasini bermokda sababi maktablarda til borasida bir kancha tugaraklar bugungi kunda uz faoliyatini olib bormokda. Aynan shu narsaga otaonalar xam jalb kilingan. Otona, maktab xamkorligi yulga kuyilib bugunda ukuvchilar shu asnoda dars tayyorlab, ularda rks tiliga bulgan kizikish ancha kuchaygan. Buning natija va samarasida ukituvchi va ukuvchi mexnati yotipti. Albatta bu ijobiy natija.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning



mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. O'quvchilarning to'g'ri, ravon, ongli va ifodali o'qish, badiiy asar g'oyasini tushunish, asar yoki voqea-hodisaga o'z fikrini bildirish qobiliyatlari o'sib boradi.

Rus tili darslarida o'qitish va so'zlab berish jarayonida o'quvchilarning talaffuz normalariga rioya qilishlari talab qilinadi. Buning natijasida o'qituvchi o'quvchilarni tiniq va ravon so'zlashlari, har bir so'z tinglovchilar e'tiborini o'ziga jalb qilishi kabi nutq malakalarini egallashlariga katta hissa qo'shgan bo'ladi. O'qish darslaridagi barcha asarlarni o'qitish orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazib boriladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. K.Qosimova. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi. 1995.
2. M.YUsupov. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. Toshkent: O'qituvchi. 2016.
3. »Boshlang'ich ta'lim«, «Til va adabiyot ta'limi» jurnallari



ФОРМИРОВАНИЕ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В СФЕРЕ НАЛОГОВ И НАЛОГООБЛОЖЕНИЙ

Турсуной Эргашева

Аннотация: в статье рассматривается вопрос формирования иноязычной компетентности будущих специалистов в сфере налогов и налогообложений в условиях формирования цифровой экономики. В статье также рассматриваются формирования иноязычной компетентностей будущих специалистов, что может являться основой качественных образовательных инноваций в профессиональном образовании. Важными в деятельности специалистов налоговой сфере являются не только собственно специальные знания, умения и навыки, но и развитие общекультурных и общепрофессиональных компетентностей, в структуре которых формирование иноязычной компетентности особенно значимо в условиях возрастающей профессиональной мобильности. Приведены основные рекомендации по формированию иноязычной компетентности студентов при подготовке квалифицированных кадров в сфере налога и налогообложения.

Ключевые слова: английский язык, цифровая экономика, налоги и налогообложение, иноязычной компетентности, компетентность, компетенция, инновация, общекультурная компетенция, общепрофессиональная компетенция.

FORMATION OF FOREIGN LANGUAGE COMPETENCE OF FUTURE SPECIALISTS IN THE FIELD OF TAXES AND TAXATION

Tursunoy Ergasheva

Abstract: the article deals with the issue of the formation of foreign language competence of future specialists in the field of taxes and taxation in the context of the formation of the digital economy. The article also discusses the formation of foreign language competencies of future specialists, which can be the basis of high-quality educational innovations in vocational education. Importance of the activities of tax specialists are not only in their own special knowledge, skills and abilities, but also the development of general cultural and general professional competencies, in the structure of which the formation of foreign language competence is especially significant in the context of increasing professional mobility. The main recommendations are on the formation of foreign language competence of students in the training of qualified personnel in the field of taxes and taxation are given.

Keywords: English language, digital economy, taxes and taxation, foreign language competence, competence, competence, innovation, general cultural competence, general professional competence.

Введение. Подготовка кадров высокой квалификации, способных обеспечить развитие инновационной экономики основанных на цифровых технологиях, продолжает оставаться одной из важнейших задач современного общества, которую оно стремится решить модернизацией системы профессионального образования, в первую очередь, переориентируя оценку результата образования от количества передаваемых знаний, умений и навыков к оценке уровня профессиональной компетентности будущего специалиста в сфере налогов и налогообложений. В связи с этим одна из основных целей профессионального образования, согласно государственным образовательным стандартам, формулируется как подготовка квалифицированного специалиста, компетентного, свободно владеющего своей профессией и готового к постоянному профессиональному росту, социальной и профессиональной мобильности.

Современное образование призвано обеспечить подготовку компетентного специалиста, имеющего качества, знания и умения, которые определяют его конкурентоспособность на рынке труда и мотивацию профессионального совершенствования в течение всей жизни.

Современное состояние общества имеет ряд глубинных трансформаций, что связано с динамично идущим переходом от индустриального общества к обществу постиндустриальному и информационному, в котором процессы распространения и передачи знаний становятся



ключевыми. Повышение качества образования является одной из актуальных проблем для Узбекистана. Решение данной проблемы напрямую связано с модернизацией содержания образования, оптимизацией способов и технологий организации образовательного процесса и, непременно, переосмыслением цели и результата образования. Это свидетельствует о кардинальном значении для развития современной экономики высокой компетенции работников, чего невозможно добиться без качественного образования. В современном мире качество образования уже стало одним из важнейших факторов конкурентоспособности экономики.

Без хорошо развитой системы высшего образования невозможно обеспечить экономическую, политическую и культурную независимость государства и целостное развитие общества. Образование должно находиться в неразрывной связи с государством, с перспективами развития страны, проводимыми реформами и интересами общества.

В целях определения приоритетных направлений системного реформирования высшего образования в Республике Узбекистан, поднятия на качественно новый уровень процесса подготовки самостоятельно мыслящих высококвалифицированных кадров с современными знаниями, высокими духовно-нравственными качествами и с высокой компетенции, а также, модернизации высшего образования, развития социальной сферы и отраслей экономики на основе передовых образовательных технологий принят ряд нормативных актов.

На основании Указа Президента принятом 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан на период до 2030 года» и согласно постановлению Кабинет Министров Республики Узбекистан, от 31 декабря 2020 года № 824 «О мерах по совершенствованию системы организации образовательного процесса в высших образовательных учреждениях». начиная с 2020/2021 учебного года, учебный процесс в высших образовательных учреждениях поэтапно переводится на кредитно-модульную систему.(1,2)

Кредитно-модульная система, представляющая собой процесс организации образования, представляет собой совокупность модульных технологий обучения и оценочной модели, основанной на кредитном измерении. Его проведение в целом является многогранным и сложным системным процессом. В кредитно-модульном принципе придается значение двум основным вопросам: обеспечению самостоятельной работы учащихся и рейтинговой оценке знаний учащихся.

Кредитно-модульная система организации учебного процесса - это европейская системы вузовского образования (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS), принятая сегодня в зарубежных университетах, в том числе Европы, России и США. (3)

В последние годы в практике внедрением кредитно-модульной системы в высшем образовании активно используется компетентный подход к подготовке специалистов.

В сфере высшего образования вследствие процессов модернизации ключевыми понятиями стали «компетентность» и «компетенция». Это свидетельствует о том, что коренным образом изменяется потребность на нового специалиста, который должен предъявить не столько знания, умения и навыки, сколько быть готовым их применять, быть готовым к принятию самостоятельных решений и проявлению инициативы.

Компетенция – это нормативное требование к образовательной подготовке обучаемого, необходимой для его эффективной и продуктивной деятельности в определённой сфере. В отличие от компетентности, компетентность – владение, обладание обучаемых соответствующей компетенцией, подразумевающее его отношение к ней и предмету деятельности; т.е. это совокупность личных качеств обучаемого, необходимых и достаточных для осуществления продуктивной деятельности по отношению к определённому объекту. Итак, компетенция – это внешне заданная норма, а компетентность – личностное качество, характеризующее владение этой нормой. (4)

В настоящее время в связи с развитием международных отношений, расширением сфер общественной жизни, в политике, экономике, культуре, сферах производства всё большее число представителей различных профессиональных сообществ вовлекается в реальный процесс общения. Анализ исследований показал, что знание и владение иностранным языком становится одним из важных требований, предъявляемых к специалистам в условиях современного рынка труда, и является одной из составляющих профессиональной компетентности будущих специалистов в сфере налогов и налогообложений.



Формировании иноязычной компетентностей будущих специалистов, что может являться основой качественных образовательных инноваций в профессиональном образовании. Важными в деятельности специалистов являются не только собственно специальные знания, умения и навыки, но и развитие общекультурных и общепрофессиональных компетентностей, в структуре которых формирование иноязычной компетентности особенно значимо в условиях возрастающей профессиональной мобильности.

Впервые термин «компетенция» появился в лингвистике, и его связывают с исследованиями Н. Хомского, который сформулировал данное понятие применительно к теории языка трансформационной грамматики. Он проводил фундаментальное различие между компетенцией (знанием своего языка говорящим-слушающим) и употреблением (реальным использованием языка в конкретных ситуациях), подчеркивая, что употребление связано с мышлением, реакцией на использование языка, с навыками, с опытом самого человека. Полагаем, что заключенная в этих понятиях именно концентрация внимания на результате овладения языком и развитии способности человека действовать в различных проблемных ситуациях послужили основанием для переноса понятия «компетенция» в область человековедческих знаний, в частности в педагогическую науку, и, следовательно, оформлению теоретических положений компетентностного подхода. (5)

С точки зрения Н.Хомского, в его классификации ключевые образовательные компетенции конкретизируются на уровне образовательных областей и учебных предметов для каждой ступени обучения. Таким образом, компетенции определяются автором на основе главных целей общего образования, структурного представления социального опыта и опыта личности, а также, основных видов деятельности обучаемых, позволяющих ему овладевать социальным опытом, получать навыки жизни и практической деятельности в современном обществе.

По мнению Н.Хомского, к ключевым образовательным компетенциям относятся следующие: (6)

- Ценностно-смысловые компетенции;
- Общекультурные компетенции;
- Учебно-познавательные компетенции;
- Информационные компетенции;
- Коммуникативные компетенции;
- Социально-трудовые компетенции;
- Компетенции личностного самосовершенствования.

Рассмотрим вышеперечисленных классификацию подробнее:

1. Ценностно-смысловые компетенции. Это компетенции в сфере мировоззрения, связанные с ценностными представлениями учащегося, его способностью видеть и понимать окружающий мир, умение ориентироваться в нём, осознавать свою роль и предназначение, уметь выбирать целевые и смысловые установки для своих действий и поступков, принимать решения.

2. Общекультурные компетенции - круг вопросов, в которых учащийся должен быть хорошо осведомлён, обладать познаниями и опытом деятельности. Сюда относятся особенности национальной и общечеловеческой культуры, духовно-нравственные основы жизни человека и человечества, отдельных народов, культурологические основы семейных, социальных, общественных явлений и традиций, роль науки и религии в жизни человека.

3. Учебно-познавательные компетенции. Это совокупность компетенций учащегося в сфере самостоятельной познавательной деятельности, включающей элементы логической, методологической, общие учебной деятельности, соотнесённой с реальными познаваемыми объектами.

4. Информационные компетенции. Эти компетенции обеспечивают навыки деятельности учащегося с информацией, содержащейся в учебных предметах и образовательных областях, а также в окружающем мире. При помощи различных платформ обучение и технологий (онлайн уроки, вебинар, телеконференции, видеоконференции, мультимедийные технологии, интернет, компьютер и т.д.) учащийся должен уметь самостоятельно искать, анализировать и отбирать необходимую информацию, организовывать, преобразовывать, сохранять и передавать её.

5. Коммуникативные компетенции включают знание необходимых языков, способами взаимодействия с окружающими и удалёнными людьми и событиями, навыки работы в группе, владение различными социальными ролями в коллективе. Учащийся должен уметь



представить себя, написать письмо, заполнить анкету, заявление, задать вопрос, вести дискуссию.

6. Социально-трудовые компетенции означают владение знанием и опытом в гражданско-общественной деятельности, в социально-трудовой сфере, в области семейных отношений и обязанностей, в вопросах экономики и права, в профессиональном самоопределении. Сюда входят: умения анализировать ситуацию на рынке труда, действовать в соответствии с личной и общественной выгодой, владеть этикой трудовых и гражданских взаимоотношений.

7. Компетенции личностного самосовершенствования направлены на то, чтобы осваивать способы физического, духовного и интеллектуального саморазвития, эмоциональную саморегуляцию и самоподдержку. Реальным объектом здесь выступает сам учащийся. Он овладевает способами деятельности в собственных интересах и возможностях, что выражается в его непрерывном самопознании, развитии необходимых современному человеку личностных качеств, формировании психологической грамотности, культуры мышления и поведения.

Подготовка специалистов в направлении налогов и налогообложения имеет большое значение в развитии экономики нашей страны, в связи с чем одним из приоритетов является направление процесса профессионального образования на развитие профессиональной компетентности обучающихся. Направление налогов и налогообложения является одним из наиболее актуальных для нашего общества вопросов повышения качества подготовки кадров и обеспечения их профессионального роста. Политическая, экономическая, экологическая, социальная безопасность страны зависит от уровня знаний сотрудников, работающих в налоговой системе, уровня развития компетенций, связанных с их работой, степени готовности к работе в этой сфере.

